

Angren shahar 43-umumiy o`rta ta`lim
maktabida

**“Vatanparvarlikni
chin e`tiqodga
aylantiraylik”**

mavzusida
Angren shahar ichki
ishlar xodimlari bilan
o`tkazilgan ma`naviy-
ma`rifiy tadbir ishlanmasi

Mas`ul o`qituvchi:

N.Dushayeva.

2013-2014-o`quv yili.

**“Vatanparvarlikni chin e`tiqodga aylantiraylik”
mavzusidagi uchrashuv tadbiri.**

Maqsadi:

O`quvchilarni ona Vatanga muhabbat ruhida haqiqiy vatanparvar etib tarbiyalash, ularda Vatanni himoya qilish, mustaqilligimizni asrash kabi oliy burch tushunchalarini shakllantirish.

Tadbir o`tkaziladigan joy: Maktab majlislar zali.

Tadbir o`tkazilish vaqti: 16-yanvar 2014-yil

Tadbirning borishi:

1-boshlovchi:

Sen doim yashagin, baxtiyor ko`rkam,
Dushmanlar hasaddan kuyib-la o`lsin.
Baxt qushi boshingda uchsini abadiy,
Vatanim, boringga shukurlar bo`lsin!

2-boshlovchi:

Muqaddas tuprog`ing burkansin gulga,
Zararli tikanlar qurisin, so`lsin.
Kelajaging, albatta, bo`lgay ulug`vor,
Vatanim, boringga shukurlar bo`lsin!

1-boshlovchi:

O`zbekiston mard o`g`lonlari,
Bahodirlar, pahlavonlari,
Tinchligimiz chin posbonlari,

Bayramingiz muborak bo`lsin!

2-boshlovchi:

Qayda bo`lmang yermi, osmonda,
Tog`mi, dala, cho`l biyobonda,
Bu muqaddas ona makonda,
Bayramingiz muborak bo`lsin!

1-boshlovchi:

Assalomu alaykum aziz ustozlar, qadrli o`quvchilar hamda muhtaram mehmonlar!
Bugungi "Vatanparvarlikni chin e`tiqodga aylantiraylik" mavzusidagi tadbirimizga xush kelibsiz.

2-boshlovchi:

Barchangizni Vatan himoyachilari kuni bilan chin dildan tabriklaymiz.
Endi 6 "A" sinf o`quvchilarining sizlar uchun tayyorlagan bayram dasturini tomosha qiling.
(Sahnada 6 "A" sinf o`quvchilari tayyorlagan she`rlar, qo`shiqlar va sahna ko`rinishlari namoyish qilinadi.)

1-boshlovchi:

Endi kechamiz mehmonlari bilan tanishing.
Angren shahar Ichki ishlar bo`limi qo`lga olish guruhi xodimlari:
Imanov Mahmud militsiya serjanti.
Ergashev Ixtiyor militsiya serjanti.
Ibragimov Zafar militsiya safdori.
Ro`zmatov O`ktam iste`fodagi militsiya serjanti.

2-boshlovchi:

So`z navbatini mehmonlarga beramiz.
(Imanov Mahmud militsiya serjanti, Ergashev Ixtiyor militsiya serjanti, Ibragimov Zafar militsiya safdori, Ro`zmatov O`ktam iste`fodagi militsiya serjanti so`zga

chiqib Vatanni muqaddasligini va uni qo`riqlash har bir fuqaroning burchi ekanligi haqida so`zladilar)

O`quvchilar mehmonlarga savolllar bilan murojaat qiladilar.

1. Shahrimizda jinoyatchilikning oldini olish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
2. Jinoyatchilarni qo`lga olishda qanday muammolarga duch kelasiz? Jinoyatchilarni qo`lga olish jarayonida qarshilik ko`rsatadimi?
3. Harbiylik haqida so`zlab bering.
4. Harbiy bo`lish uchun nimalarga e`tabor berish kerak? Maktabda qaysi fanlarni ko`proq o`qish kerak? (Savollarga to`liq javob berildi)

Tadbir yakuni.

Tadbirni xulosalash va mehmonlarni kuzatish.

1-boshlovchi:

Siz borsiz, oshiqlar yorga gul tutar,
Har bahor qirlarni gulag belaydi.
Beshikni quchoqlab yangi kelinlar,
Xudodan qo`chqorday o`g`il so`raydi...

Siz borsiz, osmonning raftori toza,
Quyoshning yuzini bosmagay tutun.
Siz borsiz, yuradi ko`kda oy suza,
Hammaning ertadan umidi butun.

2-boshlovchi:

Maqomi ulug`dir, xizmati ulug`,
To`tiyo sanalsin bosgan izingiz.
Yurt deb jon tikkanlar sharafi qutlug`,
El oldida doim yorug` yuzingiz.

Har qanday xatarga ko`kragin kergan,
Qadringiz bebaho , aziz harbiylar.

Qismatga fidolik baxsh etgan Egam,
Ha, aziz fidoyi sizsiz, harbiylar.
Shuning bilan bugungi tadbirimiz nihoyasiga yetdi.
E`tiboringiz uchun tashakkur!